



## DOIRA CHOLG'USINING SHASHMAQOMDAGI AHAMIYATI

Begmatov Behruz Nazirjon o'g'li

Guliston davlat universiteti

“Xalq cholg'u'larida ijrochilik” ta'lim yo'nalishi

1-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Xusnora Shukurjonova

Email: behruzbegmatov991@gmail.com

Tel: +998994680318

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15316051>

### ARTICLE INFO

Received: 18th April 2025

Accepted: 20<sup>th</sup> April 2025

Published: 30<sup>th</sup> April 2025

#### KEYWORDS

*Doira, maqom, ashula, sado, ohang, turkum, musiqa, tanbur, dutor, rubob, chang, qonun, g'ijjak, nay, ritm.*

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada doira cholg'usining o'zbek musiqasining eng yuksak janrlaridan biri bo'lgan shashmaqomdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Doira, o'zining ritmik va melodik imkoniyatlari bilan shashmaqom musiqasining tarkibida muhim rol o'ynaydi. Maqolada doiraning ritmik funksiyasi, uning maqom musiqasidagi o'ziga xos o'rni va shashmaqomga qo'shgan hissasi yoritiladi. Har bir maqomda doiraning ijro shakli va uning musiqaga qo'shgan hissasi farqlanadi, bu esa shashmaqom musiqasining mazmunini va shaklini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Maqola, doiraning shashmaqomdagi ahamiyatini aniqlab, uning musiqiy ifodaning asosi sifatida qanday ishlatilishini tushuntiradi.*

“Maqom” arabcha so'zdan olingan bo'lib (o'rin, joy, tovush, parda, daraja) degan ma'nolarni anglatadi. Maqom san'ati uzoq o'tmishga borib taqaladi. Maqom musulmon sharq musiqasida asosiy tushuncha hisoblanadi. Vaqt o'tishi natijasida sharq musiqa nazariyasining rivojlanishi jarayonida maqomning ma'nosi kengaydi. Maqomlarimiz soni va tizimi yaqin va o'rta sharq mumtoz musiqasida XIII asrgacha belgilanmagan. Safiuddin al-Urmaviy maqom tizimining ilmiy tasnifini ishlab chiqadi va “O'n ikki maqom tizimini” ishlab chiqdi. Maqomlarning yuzaga kelishi insoniyat tafakkurida uzoq davr izlanishlar samarasidir. Sharq xalqlarining maqom san'ati va ijro uslublari asrlar davomida xalqlarning milliy mahalliy an'analar ta'sirida paydo bo'lgan. O'zbek mumtoz musiqasida Buxoro Shashmaqomi, Xorazm maqomlari, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari, surnay, dutor maqom yo'llari shakllanib, bugungi kungacha bizga yetib kelgan. Maqom cholg'u va ashula yo'llari milliy musiqa merosimizning salmoqli qismini tashkil etib, bastakorlar ijodiyoti uchun ilhom manbai bo'lib xizmat qilmoqda.

Maqom san'ati ko'pchilik sharq xalqlari musiqa merosida mavjud bo'lib, milliy musiqaning asosini tashkil qiladi. Maqomlar ma'lum tartibda yaratilgan turkumli musiqiy asar bolib, bastakorlik ijodiyotining oziga xos xususiyatlardan biridir. Maqomlar keng ma'noda xalq musiqasi qomusidir. Chunki ularda, xususan Shashmaqomda o'zbek va tojik xalqlari musiqasiga xos vazn xususiyatlari, sado ohanglari, doira usullari, she'riyat bilan xalq ashula

yo'llarining bog'lanish qoidalariga asoslangan qator jabhalarda to'laqonli ifodasini topgan. Har bir ilmning o'z tarixi, shakllanish va rivojlanish bosqichi bo'lgani kabi maqom san'ati ham bir necha asrlik tarixga ega. Maqom - yetuk va o'ziga xos og'zaki professional musiqa turkum janri bo'lib, o'rta asrlarda bastakorlar tomonidan yaratilgan.

Maqom - xalqimiz vujudidan sizib chiqqan ohang bo'lib, asrlar osha yashab kelmoqda. Afsuski, keyingi yillarda bu qutlug' maqom san'ati turiga e'tibor susaygandek edi. Lekin, Prezidentimizning tashaboslari bilan milliy maqom san'atini rivojlantirish to'g'risidagi qarori ayni muddao bo'ldi, Davlatimiz rahbari O'zbekiston ijodkorlari bilan uchrashuvida ta'kidlaganidek, biz xalqimizning noyob merosi bo'lgan maqom san'atini nafaqat yurtimizda, balki butun dunyo bo'ylab keng targ'ib qilishimiz, kerak bo'lsa, xalqaro miqyosda maqom tanlovlarini tashkil etish ustida ishlashimiz kerak. Deya takidlashlari va aynan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan milliy merosimizni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash, uni yoshlarga yetkazish borasidagi ezgu sa'y-harakatlar milliy maqom san'ati rivojiga ko'rsatilayotgan g'oyat ulkan e'tibor va g'amxo'rlikdan yorqin ifodasini ko'rmoqdamiz.

Bizning maqom san'atimiz qalblarga sokinlik, orom, ruhiyatga poklik, mo'tadillik bag'ishlaydi. Uning mo'jizakorligi bu qadimiy merosimizni o'zbek tilini mutlaqo tushunmaydigan xorijliklarni ham sehrlab, o'ziga mahliyo qilib tinglashida yaqqol namoyon bo'ladi.

Maqomimiz ohanglari, maqom ruhi va falsafasi har bir inson qalbida, avvalo, unib o'sib kelayotgan yosh avlodimizning ongi va yuragidan chuqur joy olishi uchun bor imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz zarur.

Maqom xalqimizning bebaho ma'naviy merosi hisoblanadi. Ushbu san'at rivojlanishning uzoq davrni bosib o'tgan, ko'plab san'atkorlar, bastakorlar uning rivojlanish taraqqiyotiga o'z hissalarini qo'shgan. Ularda inson kechinmalarining eng nozik ohanglari jamlangan. Shu sabab maqomni yurak bilan his qilish, tushunish uchun ma'lum tayyorgarlik zarur. Buning uchun kishi yoshlikdan musiqaga mehr qo'yishi, ruhiy kamolotini ayni shu jihat bilan bog'lamog'i kerak. Maqomni eshitish uni tugal tushunishni anglatmaydi. Ijro yo'liga kelsak, u alohida san'at, va madaniyat.

Hozirgi zamon o'zbek maqom cholg'u ijrochiligida tanbur, dutor, rubob, chang, qonun, g'ijjak, nay va doira kabi yigirmaga yaqin cholg'ular qo'llanilmoqda. Shu jihatdan maqom cholg'u ijrochiligimiz ko'p asrlik tajribaning hosilasi bo'lib, o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bunday xususiyatlarning asosiylari quyidagilardir:

- Shashmaqom va Xorazm maqomlarining cholg'u qismlarini ijro etish;
- Shashmaqom va Xorazm maqomlarining ashula qismlarini va Farg'ona Toshkent maqom yo'llarini ijro etish;
- Maqom xonandalariga jo'rnavozlik qilish;
- Maqom ijrochiligiga imkon qadar cholg'ularning keng turlarini qo'llash.

Mana shu xususiyatlari bilan "maqom cholg'u ijrochiligi" atamasi ma'nomazmun kasb etadi. Maqom cholg'u ijrochiligi maqom ijrochiligining negizlaridan biri sifatida idrok etilishi kerak. Bundan tashqari "maqom cholg'u ijrochiligi" atamasida Surnay maqom yo'llari, Dutor maqomlari va yovvoyi maqom yo'llarini ijro etish ham ko'zda tutiladi. Shu sababli bo'aliy atama ekanligini bilishi kerak.<sup>1</sup>

Shashmaqom musiqasining asosiy elementlaridan biri bu uning o'ziga xos ritmidir. Doira bu ritmni ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Odatda, doira shashmaqomning har bir maqomiga mos ravishda, o'zining ijro shaklini o'zgartirib turadi. Shu bilan birga, doiraning ta'siri orqali shashmaqomning tezligi, tembr va dinamikasi ham sezilarli darajada o'zgaradi.

<sup>1</sup> Qodirov N. Maqom cholg'u ijrochiligi (G'anijon Toshmatovning ijodi misolida). O'quv qo'llanma.-T.: "Musiqqa".2020

Maqom musiqasi asosan ko'p qavatli va o'zaro bog'langan melodiya va ritmlar tizimidan iborat bo'lib, doira bu tizimning eng muhim qismi sifatida ijro etiladi. Doira shashmaqomda xuddi qaysi maqomda ijro etilayotganiga qarab o'zini farqlaydi. Misol uchun, "Segoh", "Rost", kabi maqomlarda doiraning harakati turlicha bo'lishi mumkin.

#### Xulosa

Doira shashmaqomdagi ahamiyati shundaki, u musiqaning ritmik asosi sifatida nafaqat tinglovchini maftun qiladi, balki kompozitsiyaning har bir segmentida melodik va garmonik uyg'unlikni yaratishga yordam beradi. Shashmaqom musiqasidagi har bir maqomda doiraning o'ziga xos ijro shakllari mavjud bo'lib, bu asbobning musiqa san'ati va uning shakllanishidagi o'rnini beqiyosdir. Doira, nafaqat shashmaqomda, balki o'zbek musiqa madaniyatining butun tarixida muhim cholg'u asbobi sifatida o'zining beqiyos o'rnini saqlab qolgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Rajabov I. Maqomlar. T., 2006
2. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. T., 1963
3. Yunusov R. O'zbek xalq musiqa ijodiyoti. 2-qism. T., 2000
4. Ibrohimov O. Maqom asoslari. T., 2018
5. Matyoqubov O. Maqomot. T., "Musiq", 2004
6. Rajabov I. Maqom asoslari. T., 1963.
7. Dilshod, K. (2023). O'ZBEK KINOFILMLARIDA MILLIY MUSIQALARDAN FOYDALANISH HOLATI: MUAMMO VA YECHIMLAR. In Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes (p. 46).
8. Karimov, D. (2023). Muvaffaqiyat Yo'Lim: Unda Topganlarim Va Yo'Qotganlarim. In International Conference on Multidimensional Research and Innovative Technological Analyses (pp. 6-8).
9. Bahadirov, N., Karimov, D., & Shukurjonova, X. (2024). KOMPOZITOR REFAT IBADLAYEV. Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 1(6), 72-79.
10. Bebetova, M., & Karimov, D. (2024). DUTORCHI SOZANDALAR IJODIGA BIR NAZAR. Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 1(17), 28-30.
11. Бахадирова, Н. Ш., Каримов, Д., & Шукуржонова, Х. (2024). АРТУРО ТОСКАНИНИ. Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 1(6), 65-71.
12. O'G'Li, K. D. M. (2022). CHOLG'U IJROCHILIGINI O'RGANISHDA MUSIQIYNAZARIY FANLARNING O'RNINI. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 1(Conference DSMI), 283-286.
13. O'G, T. A. O. K., & Shukurjonova, X. (2024). DOIRA CHOLG 'USIDA IJROCHILIK MAHORATINI OSHIRISHDA QO 'LLANILADIGAN MASHQLAR MOHIYATI. Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 1(18), 137-139.
14. Begmatov, B., & Shukurjonova, X. (2024). QADIMIY MUSIQA MADANIYATI CHOLG 'ULARI TASNIFI. Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 1(17), 31-34.
15. Saidvaliyeva, M., & Shukurjonova, X. (2024). DUTORLAR OILASIGA MANSUB CHOLG 'ULAR TASNIFI. Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 1(17), 35-38.
16. Rahmatova, G. (2021). The genre of odes in the oral work of the turkic peoples and its genesis. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(8), 194-196.

17. Rahmatova, G. S. (2022). SOCIAL AND PEDAGOGICAL CONDITIONS IN THE PERFORMANCE OF TRADITIONAL SINGING WORKS OF THE 21ST CENTURY. Экономика и социум, (2-2 (93)), 322-325.
18. Saidov, J. D., Qudratov, A. N., Islikov, S. X., Normatova, M. N., & Monasipova, R. F. (2023). Problems of Competency Approach in Developing Students' Creativity Qualities for.

